

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

STRATEGIK MENEJMENT YONDASHUVLARI ASOSIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI BOSHQARUVINI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Dustova Ozoda Madikulovna

Ilmiy rahbar: Davlatov Suxrob Saidjonovich

Annotatsiya

Maqolada strategik menejment asosida oliy ta'limni boshqarish masalalari muhokama etiladi. Shuningdek mintaqaviy klasterlar tizimida oliy ta'lim alohida o'ringa egaligi xususidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim klasteri, strategik boqaruv, innovatsion texnologiya, raqobatbardosh kadr, modellashtirish, prognozlash, ta'lim xizmati, globallashuv.

KIRISH

Jahonda mintaqaviy xususiyatlar va omillarni e'tiborga olgan holda oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning strategik boshqaruvi, sifatini oshirish yuzasidan ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, davlatlarning rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash strategik boshqaruvining samarali uslublarini ishlab chiqish; iqtisodiyotning yuqori malakali mutaxassislariga nisbatan tez o'zgarib boruvchi ehtiyojini kadrlar tayyorlashning mavjud imkoniyatlari hamda salohiyati bilan muvofiqlashtirish; kadrlar tayyorlash uyg'unligining sifati va samaradorligini modellashtirish hamda prognozlash jarayonlarini maqsadli ehtiyoj va kadrlarga bo'lgan talab tarkibi asosida takomillashtirish kabi muammolar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Mustaqillik yillarida mamlakatimiz ta'lim sohasidagi amalga oshirilgan oliy ta'lim sohasidagi islohotlar doirasida malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalari, xususan, hududlardagi oliy ta'lim muassasalarida (OTM) kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, bugungi kunda oliy ta'lim sohasida o'z yechimini kutayotgan muammolar bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash, oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimi strategik boshqaruvini samarali tashkil etish hamda strategik menejmentning zamonaviy usullaridan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

foydalanish ularni hal etish bilan bog‘liq muhim sanaladi.

Oliy ta‘lim muassasalari missiyasi uning faoliyat sohasini aniqlaydi, foyda olishdagi tutgan o‘rnini belgilaydi. Oliy ta‘lim muassasalari maqsadi ma‘lum bir muddatga iste‘molchilarning oliy ma‘lumotli kadrlarga ehtiyojini qondirish hajmini yoki foyda miqdorini qandaydir darajada oshirib borishga asoslanadi.

Ta‘lim xizmatlari salohiyatining umumiy maqsadi uning kelgusida uzoq muddatda amalga oshirishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalarini o‘zida jamlaydi. Bu vazifalar strategik rejalarda o‘z aksini topadi. Alohida yo‘nalishlar bo‘yicha kuchlar maqsadi strategik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishning qisqa muddatli usullarini qamrab oladi.

Oliy ta‘lim muassasalarining ushbu maqsadlari muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ko‘p jihatdan strategik boshqaruvga bog‘liq bo‘ladi. Boshqaruvchilar (rahbarlar)ning ko‘pchiligi strategik rejalashtirish bo‘yicha muayyan bilim va ko‘nikmalarga hamda amaliy tajribalarga ega bo‘lishsa-da, ammo o‘z kuchlarini jamlab olmaganligi, iloji boricha ko‘proq bozor ulushiga intilishi, ko‘proq turdagi kadrlar tayyorlash orqali iste‘molchilar talabini qondirishga shoshilishi tufayli ko‘zlagan maqsadlariga erisha olmaydilar.

Xalqaro tajribalarga ko‘ra mamlakatlarda ta‘lim xizmatlarini maqsadli tashkil etish va boshqarishda kutiladigan muvaffaqiyatlarga erishish uchun zaruriy kuchlarni jamlash, baholash hamda to‘g‘ri strategiyani tanlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi vaqtda oliy ta‘lim muassasalari va ularning rahbarlari harakatida ichki va tashqi muhitda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga oddiy e‘tibor ham qaratilmaydi. Fikrimizcha, oliy ta‘lim muassasalari tashqi muhitga moslashuvchanlikni ta‘minlay olishlari lozim. Shu boisdan oliy ta‘lim muassasalarida boshqarishning doimiy makro muhitdagi o‘zgarishlar va ular bilan bog‘liq noaniqliklar tug‘ilgan sharoitda moslashuvchanlikning zamonaviy vositasi bo‘lib, strategik boshqarish xizmat qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashuvchanlikni ta‘minlash maqsadida oliy ta‘lim muassasalari faoliyatida strategik boshqarish paydo bo‘lgan.

Tashqi muhitdagi eng asosiy harakatlanuvchi kuch sifatida nobarqarorlik, noaniqlik maydonga chiqadi. Shuning uchun oliy ta‘lim muassasalari bunday sharoitda o‘ta moslashuvchan bo‘lishi, muvaffaqiyatga erishishning muhim (strategik) omillarini izlab topishi, ulardan foydalanish uchun muassasa imkoniyatlarini qaytadan sarhisob



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qilishi, ya'ni o'zining mustahkam rivojlanish yo'nalishini belgilab olishi talab etiladi.

Respublikamizda ta'lim xizmatlari bozorida amalga oshirilayotgan tub islohotlar oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishga yangi imkoniyat yaratib bermoqda. Shuning uchun respublikamizda faoliyat olib borayotgan oliy ta'lim muassasalari, ayniqsa, xorijiy oliy ta'lim muassasalarining boshqarishda erishgan muvaffaqiyatlarini o'zlashtirishlari, boshqaruvning zamonaviy usul va shakllarini qo'llashlari muvaffaqiyatga erishishlarida asosiy omil hisoblanadi. Ushbu jarayonda har bir OTMning ixtisoslashuv va milliy xususiyati hisobga olinishi lozim. Xususan, tashqi muhit nobarqarorligi darajasidagi har xillik boshqarishning birorta muqobil konsepsiyasiga mos keladi. Ichki muhitda oliy ta'lim muassasalari u yoki bu boshqaruv konsepsiyasini amalga oshirishga tayyor turmog'i lozim. Masalan: strategik menejment konsepsiyasini egallash oddiy rasmiy jarayon emas, balki oliy ta'lim muassasalari rivojlanishining navbatdagi muhim bosqichidir. Shu boisdan O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining holati va xususiyatini baholashga harakat qilib, quyidagi savolga javob olish mumkin: oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga strategik menejment tamoyillarini joriy qilish zarur bo'lsa, u holda bu jarayonni qanday qilib to'g'ri tashkil etish lozim?

Strategik boshqaruv masalalariga bag'ishlangan ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni o'rganish shunday xulosaga olib keldiki, ushbu tushunchani tasniflashda bir qarorga kelinmagan va uning mohiyati hanuzgacha to'laligicha ochib berilmagan [1]. Shu boisdan har bir muallif o'z yondashuvini turlicha talqin qilib, amalga oshirgan. Binobarin, ushbu tushuncha mohiyatini nisbatan to'laroq ochib berish maqsadida, har xil ta'riflarni o'rganish natijalariga tayanib, uning barcha tomonlarini tavsiflaydigan asosiy elementlarni ajratish maqsadga muvofiqdir (1-jadval).



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

1-jadval Oliy ta'lim tizimida strategik boshqarishning kompleks tavsiflari

T/r	Qarab chiqilayotgan soha	Strategik boshqarishning ushbu sohasi tavsifi
1.	Boshqarish mo'ljali	uzoq kelajakda muassasaning yashab qolish ("hayotiylik sikli") mo'ljali va maqsadga erishishi; menejmentning oliy ta'lim muassasalari tashqarisidagi imkoniyati, mijozlar so'roviga (oliy ta'lim muassasalari faoliyati bilan qiziquvchilar) asosiy e'tibor qaratilishi; strategik boshqaruv oliy ta'lim muassasalari g'oyalarini saqlab qolgan holda rahbariyatga vazifaning maqsadi va vositalarini tanlashni taklif etadi.
2.	Strategiya mohiyati va mazmuni	o'z mohiyati jihatidan qoidalar jamlamasi bo'lib, uning yordamida rahbariyatdan boshqarish jarayonida muhim maqsadlariga erishishda foydalanadi; muassasa rivojlanishining tanlangan uzoq muddatli sifatli yo'nalishi; yo'nalishlarni tanlash, foydalanish vositalari, salohiyat o'zgarishlarini hisobga olgan holda maqsadga erishish faoliyati; "strategiya" tushunchasi "oliy ta'lim muassasalari salohiyati" tushunchasi bilan mustahkam bog'langan; oliy ta'lim muassasalari qaysi sohada faoliyat yuritayotganligi yoki yuritmoqchi ekanligini aniqlash uchun asosiy maqsadlar, yo'nalishlar, muhim rejalar yoki dasturlar tanlashdir; keng ma'noda – bu, davom etadigan xizmat ko'rsatish–ta'lim muassasalarining aniq va nisbatan barqaror xatti-harakatini tavsiflaydigan uzoq muddatda harakatlanish qiyofasidir.
3.	Strategiyani amalga oshirish jarayoni	Strategiyani bajarish jarayoni uni amalga oshirish jarayoni emas, balki muassasa oldiga qo'ygan maqsadga erishish va strategiyani amalga oshirish uchun asos yaratadi. Bunda muassasaning strategiyani amaliyotga tatbiq etishga tayyor holdagi faoliyatida strategik o'zgarishlar qilishni tashkil etishdir.
4.	Boshqarish samaradorligi mezonlari	Oliy ta'lim muassasalari tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashish samarasidagi imkoniyatlar.
5.	Xodimlarni boshqarishga yondashuv	Ishlovchilarga ishni tashkil etishning asosi sifatida qarash.
6.	Boshqarish ob'ekti o'zgarishi tavsifi	Strategik qaror ob'ekt uzoq muddatli va to'g'rilab bo'lmaydigan asoratlarni o'z ichiga olgan faoliyat olib borishi uchun eng muhim ahamiyat kasb etadi.
7.	Tashqi muhit sharti	Yuqori noaniqlik darajasini tavsif etadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

XULOSA VA MUNOZARA

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlarini ko'rsatish va boshqarish strategiyasini takomillashtirish bo'yicha quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlari sifatini boshqarish bo'yicha strategik vazifasi, iste'molchilarni qanoatlantiradigan va xorijiy mamlakatlarning OTMlariga nisbatan raqobatda bo'lgan, sifatli kadrlarni yetishtirish hisoblanadi.
2. Xizmat ko'rsatish strategiyasining asosiy elementlaridan biri ta'lim xizmatlarini ko'rsatish ko'lamini kengaytirishdir. An'anaviy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish ko'lamini bo'yicha qabul qilingan strategik qarorlarda asosiy jihatlarga quyidagilar kiradi: istiqboldagi talabni baholash, munosib bozorlarning hayotiy davr bosqichlari to'g'risida ma'lumotlar va asosiy raqiblari bo'yicha berilgan ma'lumotlar va boshqalar.
3. Fikrimizcha, oliy ta'lim muassasalarining texnologik jarayonlar bo'yicha zamonaviy sharoitda amaldagi barcha ahamiyatli qarorlari maxsus strategik tahlilni talab etadi. Texnologiya bilan bog'langan strategik qarorlarning qabul qilinishini asoslashda juda ko'p har xil omillarni inobatga olish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ansoff I. Yangi korporativ strategiya - Sankt-Peterburg: Peter, 2019. P.416; Ansoff I. Strategik menejment - M.: Iqtisodiyot, 2019. -P. 519; Bowman K. Strategik menejment asoslari - M.: Banklar va birjalar, YUXIATI, 2005. - B. 175;
2. Ansoff I. Yangi korporativ strategiya - Sankt-Peterburg: Peter, 1999. S.S.55.
3. Avdeenko V. N. Sanoat korxonasi ishlab chiqarish salohiyati. – M.: Iqtisodiyot, 2009 yil.b.42.
4. Bekmurodov A.Sh., G'ofurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash:
5. Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekistonda iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo'nalishlar. O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2017. – 102 b.

